



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

2023/12

# TA'LIM VA INNOVATION TADQIQOTLAR

# ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

# EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

XALQARO ILMIY-METODIK  
JURNAL

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL  
JOURNAL



Shavkatov Sh. Sh. O'zbek tilida fe'lni fe'lga bog'lovchi vositalarning semantik xususiyatlari	107
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
Abidova N. Q. Autizm spektorli bolalarda ijtimoiy-maishiy malakalarini rivojlantirish	111
Arabbayev A. X. Ilmiy elektron kutubxonalar dolzarb muammolar va ularni hal etishning zamonaviy usullari	114
Атамурадов Х. Ю. Ўқувчиларда хуқуқий саводхонликни ривожлантириш тамойиллари	121
Ашурев З. Эффективно использовать доступные технологии и улучшить результаты обучения иностранным языкам	124
Bakhranova U. I. "Elektrotexnika" fanini "Umumiy fizika" fani bilan integratsiyalab o'qitishda virtual laboratoriya stendlaridan foydalanish metodikasi	128
Berdiyorova G. D. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning umumiy masalalari	135
Bobomurodov F. I. Kurashchilarda qo'llaniladigan an'anaviy «tashlash» harakatlarining biomexanikaviy yondashuv asosida klassifikatsiyalash.	138
Bobomurodova N. J. Zamonaviy ta'lim mazmunida yoshlarda ekologik tafakkurni shakllantirish	143
Botirova S. M. Tarix darslarida innovatsion texnologiyalar asosida o'quvchilarning kommunikativ va nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishning metodik asoslari	147
Bozorov Otabek Yo'ichi o'g'li Bo'lajak logopedlarning metodik kompetentligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	152
Fu Lei the analysis on difference between machine scoring and human scoring in writing assessment	155
Ibragimova M. M. Yangi O'zbekiston sharoitida badiiy gimnastikani rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbollari	161
Исманова М. А. Тарабаларда касбий-креативлик кўнималарини шакллантиришнинг педагогик-психологик хусусиятлари	165
Jo'rayev A. R. Gidravlika. issiqlik texnikasi fanini o'qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanish metodikasi	168
Jo'rayev F. A. Jamoat xavfsizligi va deviant xulq-atvorli o'smirlar: muammolar va echimlar	174
Jumayeva M. Sh. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogik faoliyatini takomillashtirishning ahamiyati	178
Karimov F. X. O'rta yoshdagagi 45-60 yoshli erkaklar uchun jismoniy tayyorgarlikni hisobga olgan holda sog'lomlashtiruvchi mashqlar jamlanmasini ishlab chiqishda nazariy yondoshuvlar.	182
Karimova G. Q. Jadidchilarning ilm-ma'rifat tarqatishdagi jonbozligi	185
Kaziyeva T. T. Talabalarda diologik nutq orqali ijodiy fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish	189
Камалова Д. Т., Жумаева Ф. Р. Рус тилини хорижий тил сифатида уқитишнинг услубий-дидактик таъминотини такомиллаштириш	194
Kdirniyazova O. A. Ommaviy axborot vositasida Talaba-yoshlar ma'nnaviy-axloqiy sifatlarini takomillashtirish dolzarb pedagogik muammo sifatida	197
Keldiyorov. Sh. E. Malakali kurashchilarning musobaqa va mashg'ulot jarayonini pedagogik nazorat qilishning nazariy-metodik asoslarini takomillashtirish	202
Koshanova N. M. Zamonaviy jamiyatda intellektual madaniyatning rivojlanishi: muammo va imkoniyatlar	208
Kurbanov. .SH. N. Kurashchilarning kurash usullari va taktik harakatlarini o'zlashtirish darajalari	213
Mahkamova D. O'quvchilarini kasbga yo'naltirishda qo'llaniladigan integrativ metodlar	218
Madatov I. Yu. Oliy ta'lim muassalarida inklyuziv ta'limgi rivojlanishi: muammo va yechimlar	223
Muxamedov A. M. Jismoniy mashg'ulotlar, jamoat sport va salomatlik tadbirlaridagi yukalamalarni takomillashuvining ilmiy va metodologik asoslari	229
Nazarova K. F. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlanish jarayonini loyihalashning mavjud holati tahlili	233



## ZAMONAVIY TA'LIM MAZMUNIDA YOSHLARDA EKOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH

Bobomurodova Nargiza Jo'raevna

Buxoro davlat universiteti, ekologiya va geografiya kafedrasi katta o'qituvchisi

*Annotatsiya: Insoniyatning butun faoliyati davomida ekologik muammolar tobora kuchayib kelgan va ularni hal qilish uchun doimo shoshilinch choralar ko'rishni talab qilgan. Oxir-oqibat, insoniyat bu muammolarning mohiyatini bilib oldi va farovon yashash o'ziga eng qulay sharoitlarni yaratish uchun ularni yengib o'tishni o'rgandi. Bugungi kunda ekologik muammolar mavjud, tabiiy muhitning ekologik muammolari va umuman atrof-muhitni boshqarish ehtiyyotkorlik bilan va shoshilinch hal qilishni talab qiladi, chunki inson faoliyati o'zining tabiiyligini yo'qotib, tobora ijtimoiy xususiyat kasb etmoqda. Mazkur maqola zamonaviy ta'lismazmunida talaba-yoshlarning ekologik tafakkuri va savodxonligini shakllantirish muammosiga bag'shlingan.*

*Kalit so'zlar: jamiyat, tabiat, fan, ta'lism, ekologiya, dunyoqarash, tafakkur, mazmun, omil, prinsip, muammo, maqsad, metod, shakl, yechim.*

## РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ В СОДЕРЖАНИИ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Бобомуродова Наргиза Жураевна

Ст.преподаватель кафедры экологии и географии Бухарского государственного университета

*Аннотация: На протяжении всей деятельности человечества экологические проблемы становились все более острыми и всегда требовали неотложных мер для их решения. В конечном итоге человечество познало суть этих проблем и научилось их преодолевать, чтобы создать максимально комфортные условия для благополучной жизни. Сегодня существующие экологические проблемы природной среды и природопользования в целом требуют тщательного и безотлагательного решения, поскольку деятельность человека теряет свою естественность и все большее приобретает социальный характер. Данная статья посвящена проблеме формирования экологического мышления и грамотности учащихся в условиях современного образования.*

*Ключевые слова: общество, природа, наука, образование, экология, мировоззрение, мышление, содержание, фактор, принцип, проблема, цель, метод, форма, решение.*

## DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL THINKING OF YOUTH IN THE CONTENT OF MODERN EDUCATION

Bobomurodova Nargiza Zhuraevna

Senior Lecturer, Department of Ecology and Geography, Bukhara State University

*Abstract: Throughout the history of mankind, environmental problems have become increasingly acute and have always required urgent measures to solve them. Ultimately, humanity learned the essence of these problems and learned to overcome them in order to create the most comfortable conditions for a prosperous life. Today, existing environmental problems of the natural environment and environmental management in general require a thorough and urgent solution, since human activities are losing their naturalness and are increasingly acquiring a social character. This article is devoted to the problem of developing environmental thinking and literacy of students in the conditions of modern education.*

*Key words: society, nature, science, education, ecology, worldview, thinking, content.*

**KIRISH.** Insoniyatning butun faoliyati davomida ekologik muammolar tobora kuchayib kelgan va ularni hal qilish uchun doimo shoshilinch choralar ko'rishni talab qilgan. Oxir-oqibat, insoniyat bu muammolarning mohiyatini bilib oldi va farovon yashash o'ziga eng qulay sharoitlarni yaratish uchun ularni yengib o'tishni o'rgandi. Bugungi kunda ekologik muammolar mavjud, tabiiy muhitning ekologik muammolari va umuman atrof-muhitni boshqarish ehtiyyotkorlik bilan va shoshilinch hal qilishni talab qiladi, chunki inson faoliyati o'zining tabiiyligini yo'qotib, tobora ijtimoiy xususiyat kasb etmoqda.



Yigirma birinchi asrda fan va texnika taraqqiyoti yangi bosqichga qadam qo'ydi. Ayniqsa ilm-fan sohasidagi innovatsiyalar asosidagi kashfiyotlar orqali fan va texnika qudratli ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi.

Fan va texnikaning qudratli taraqqiyoti iqtisodiyot negizida yangi tamaddunning shakllanishi tendensiyasini vujudga keltirdiki, uni globallashuv jarayoni deb atash odat bo'ldi.

Aholi turmush tarzining yaxshilanishi, ilm-fan, tibbiyot sohasidagi taraqqiyot tabiiy ravishda aholi sonining o'sishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida tabiiy resurslardan foydalanish ko'lami oshishiga sabab bo'ldi. Tabiiy resurslardan nooqilona, rejasiz foydalanish ekologik vaziyatning yomonlashuviga ta'sir ko'rsatgani ham uning global ahamiyat kasb etishi bilan izohlanadi.

Bizni o'rabi turgan va sog'ligimizga xavf tug'dirayotgan atrof-muhitning holati haqidagi ma'lumotlar barchamizni ozmi-ko'pmi ekologlarga aylantirib qo'ydi. Insonning negativ faoliyati atrof-muhitga halokatli ta'sir qilsa, planetamizning hozirgi holati inosn sog'ligiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi degan fikrlar yashab turgan davrimizing assosiy ekologik muammosiga aylandi.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz olimlari E.Turdiqulov, A.To'xtaev, Yu.Shodimetov, J.Xolmo'minov, R.P.Mamatqulov, X.Mavlanov, E.V.Qodirov, O.Qudratov, A.N.Nigmatov, B.Ziyomuhammed, L.T.Shonosirov, A.R.Malikovalar ekologik ta'lif, ekologik savodxonlik, ekologik madaniyat, ekologik tafakkur yo'nalishida ilmiy tadqiqotlarni olib borishgan.

Yoshlar ongida ekologik tafakkurni shakllantirish hamda tabiatga nisbatan mehrli munosabatini shakllantirishning ilmiy-nazariy, ijtimoiy-falsafiy masalalari, muhim ustivor vazifalari, ratsional metodolik muammolarini o'rganishga doir ilmiy tadqiqotlarni xorijlik olimlardan P.G.Oldak, P.Doel, E.G.Moll, K.Garner, M.Valetta, M.P.Radjoneri, E.V.Babina, S.N.Solomina o'z ilmiy tadqiqotlarida tadqiq etishganlar.

Ekologik ta'imning nazariy asoslarini Rossiyalik olimlar I.D.Zverev(ekologiya matkb ta'lifi va tarbiyasining yangi aspekti), A.N.Zaxlebniy (ekologik ta'limning maqsad va vazifalari) B.G. Loganzen va N.A.Rikov (tabiatga ehtiyyotkor munosobat) I.T.Suravegina, A.P.Sidelkovskiy (o'quvchilarining tabiatga munosabti omillar) Ye.S.Slastenina, S.N.Glazachev, N.D.Andreeva, T.L.Kushnir, N.P.Nesgovorovoy, T.M.Nosova, A.V.Mironov, A.V.Afonin hamda L.A.Sitak (o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ekologik ta'lif muammolarini va yechimlari) tadqiq etishgan.

Muhokama. Ekologik savodxonlik muammosi bo'yicha manbalarning tahlili hozirgi kunda butunjaxon ilmiy-pedagogik jamoasi tomonidan bir-qancha umumiyl prinsip va qoidalar ishlab chiqilganligini ko'rsatmoqda.

- bizni o'rabi turgan atrof-muhit butun bir yaxlit tizimni tashkil etgan holda o'z tarkibiga «inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tabiiy aspektlarni oladi». (Ekologik ta'lif masalalari bo'yicha YuNESKO komissiyasi dokladi)

-jaxonda miqyosida atrof-muhit inqiroz holatida.

-atrof-muhitning inqirozi tizimli xarakterga ega bo'lib, global darajaga ko'tarilmoqda.

-global inqirozning asosiy sababi insoniyatning tabiiy resurslarni holsizlantirish yoki degredatsiyasi hisobidan iqtisodiy o'sish orqali o'zining moddiy ehtiyojlarini qoniqtirishga intilishi bilan izohlanadi.

-inqirozdan chiqishning yo'llari nafaqat ekologik xavfsiz texnologiyalarni rivojlantirish va maxsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek insoniyatning ehtiyojlarini va turmush tarzi bilan bog'liq bo'lmagan yangi axloqiy normalar va g'oyalarni shakllantirishga bog'liq bo'ladi.

-jamiyatdagi axloqiy normalar va g'oyalarni tashkil qilish jarayonidagi asosiy vazifani uzlusiz ekologik ta'lif va aholining ekologik savodxonligini oshirish masalasi egallaydi.

Aholining ekologik ma'anviyati uzlusiz ta'lif tizimida shakllanadi. Bu muammoni hal etishda asosiy manba ekologik ta'lif – tarbiya hisoblanadi.

Tabiatning rivoji uchun hayot, inson va jamiyatning paydo bo'lish imkoniyati tug'ilgan. Tabiat va uning sof komponentlarisiz inson yashay olmaydi.

Tabiat bag'rida bo'lishning o'ziyoq insondag'i ko'pgina ekologik fazilarni tarbiyalaydi: munosabat, isoniylilik, bardosh, toqat, kuch-quvvat olish, his – hayajon, sevish, rag'batlanish, sog'liqni saqlash va h.k munosabati uning ekologik madaniyati darajasi bilan belgilanadi. Bu esa mamlakatimizda ozod va obod, demokratik jamiyat qurish, rivojlangan bozor iqtisodiyoti munosabatlarini vujudga keltirish vazifalari bilan uyg'unlashadi.

-fan – texnika taraqqiyoti va aholining talablariga asosan ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi, tabiat

zaxiralaridan oqilona foydalanishning ilmiy – amaliy jihatlarini asoslab beradi.

-barkamol shaxsni ekologik madaniyatli qilib tarbiyalash, axloqiy, ilmiy – ma'rifiy va estetik jihatdan foydalanish uchun asrab yaxshilashga erishish kabi muhim pedagogik muammoning yechimini topishga imkon beradi.

-yer sharida tirik mavjudotlarning yashab qolishi, jumladan, sivilizatsiyaning davom etishi uchun havo musaffo bo'lishi tuproq va suv havzalarining sanitariya – gigienik holatiga g'amxo'rlik qilish barkamol shaxsning shaklanishiga asos bo'ladi.

Ekologik ta'lim-tarbiyani mustahkam asosda yo'lga qo'yish global ekologik inqirozning oldini olishning muhim omillaridan biri ekanligini jaxon hamjamiyati tushunib yetdi. Bu soxadagi strategik yunalish sifatida aholining ma'lum qismi va guruhlari, shuningdek alohida shaxslarning e'tiqodi va xattiharakatlariga ta'sir ko'rsatish nazarda tutiladi.

Bizning fikrimizcha ekologiya, o'qitiladigan fan sifatida barcha ekologik muammolar bo'yicha aniq va to'liq ma'lumotlarni o'zida mujjasamlashtirib, mavjud muammolarni yechish, ularning oldini olish yullari, chora-tadbirlarini belgilovchi mayoq vazifasini bajarishi lozim.

Insonlarni ekologik ongli qarorlarni qabul qilishga o'rgatish, ekologik ta'lim va savodxonlikning asosiy mazmunini tashkil qilib, har qaysi insonning ekologik muammolarni yuzaga kelishida va atrof-muhitning zararlanishiga uz hissasi borligini anglash, tushunib yetishga o'rgatadi.

Ekologik bilimlarni o'qitishda pozitiv xolda yondoshish zarur. Shu sababli ekologik ta'limning samaradorligini ta'minlash uchun uni planetamiz aholisining barcha qatlamlariga yo'naltirish lozim. Bizning aholimiz ekologiya haqida nimani biladi ?, «Ekologik xavf nima ?, kabi mavzularga doir bir qator, pedagoglar ishtirokidagi muloqot-disskusiyalarning yakuni tabiatni muxofaza qilish zarur va inson atrof-muhitga negativ ta'sir ko'rsatmoqda degan xulosalarga olib keladi

Aholining ko'pchilik qismi atrof-muhitning o'zi nima ? Uning asosiy komponentlari nimalar, bu komponentlar bir-biri bilan qanday bog'langan, ularning har biriga va alohida butun yaxlit tizimiga insonning ta'siri qanday, shuningdek, inqiroz holatining haqiqiy sabablari nimada va ekologik vaziyatni qanday qilib ijobjiy tomonga o'zgartirish haqidagi tushunchalar, bilimlarga ega emasligini ta'kidlashimiz zarur.

Bizning fikrimizcha ekologik bilimlar barcha ixtisosliklar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashning ajralmas qismi bulishi zarur. Shuningdek ta'lim tizimi xodimlari o'z pedagogik faoliyatlarining «ekologik mazmuni» ni tushungan holda ta'lim jarayonidagi barcha fanlarni o'qitishda ekologik bilimlarni integratsiyalash, uyg'unlashtirishga erishmog'lari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik bilimlarning integrativ xarakteri ta'lim jarayonini yangidan tashkil etish imkoniyatini beradi.

- Birinchidan biror bir o'quv predmeti yo'qki ular chegarasida ekologik bilimlarga joy bo'lmasa.
- Ikkinchidan ekologik ta'lim berishni ta'lim muassalaridan tashqarida ya'ni ommaviy ekskursiyalar, sayrlar, oromgohlar, tematik haftalar, ekspeditsiyalar shaklida tashkil qilish mumkin.

Ekologik bilimlarning integrativ xarakteri insonparvarlik g'oyalarga asoslangan, har tomonlama shakllangan butun bir yaxlit dunyoqarashni paydo bo'lishiga betakror imkoniyat yaratadi.

Ekologiyani o'qitish va uning mazmunida: hududiy va etno-madaniy xususiyatlar, shuningdek alohida ijtimoiy, professional va ma'lum yosh davridagi jamoalar, guruhlarning o'ziga xos qiziqishlari va istaklari hisobga olinsa, bu vazifa juda qiziqarli va har tomonlama qamrab oluvchi holat kasb etadi.

Ko'pgina mutaxassislar, jumladan psixologlarning fikricha atrof-muhitga munosabat insonning emotsiyonal-intellektual hamda irodaviy faoliyatining uyg'unligida shakllanadi. Faqat shu holatdagina shaxsning ekologik muammolarga bo'lgan ijobjiy ruhiy tafakkuri shakllanadi. Shu nuqtai nazardan ekologik ta'lim muammolarini hal etish nafaqat ta'lim mazmuni balki uni amalga oshirish shart-sharoitlari, metodlari, usul va vositalarini ham ko'rib chiqishni talab etadi.

Xulosa. Bizningcha ta'limning quyidagi metod, shakl va usullariga rioya qilinganda yoshlarning ekologik dunyoqarashi va tabiatga bo'lgan munosabat shakllanadi:

- o'quvchi yoshlarni doimiy tarzda ekologik bilimlarni egallashga undash (rolli va ishbop darslar, konferensiya, suhbat darslari, o'quvchilarining dokladi va viktorinalar)

- yoshlarni ijodiy tafakkurini rivojlantirishga ko'maklashish, insonning tabiatni asrashga qaratilgan faoliyat ko'ra bilish ko'nikmalarini shakllantirish (bu metodlar aqliy faoliyatni shakllantirishga qaratilgan: tahlil, sintez, qiyoslash, kelib chiqish sabalarini o'rganish hamda o'quvchilarining bilish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan an'anaviy ya'ni: suhbat, kuzatish, tajriba, laboratoriya va x.k.z



bo'lishi mumkin)

- ekologik qarorlarni qabul qilish va yangi bilimlarni egallashga oid tadqiqotchilik ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

- o'quvchi yoshlarni mahalliy hamda regional ekologik muammolarni hal etish faoliyatiga doir amaliy ishlarga jalg etish (ko'chatlar ekish, obodonchilik, o'simliklar dunyosini astrash)

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуллаев К.Ф., Бобомуродова Н.Ж., Кобилжонов К.К. Высокая духовность основа экологической культуры // Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации, 2020. С. 5-8.

2. Абдуллаев К.Ф., Бобомуродова Н.Ж. К проблеме взаимодействия общества и природы // Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI века, 2019. С. 255-256.

3. Бобомуродова Н.Ж. Экологическая культура как общечеловеческая ценность // ББК 74.48 Р 76, 2020. С. 188

4. Бобомуродова Наргиза Жураевна ЗАДАЧИ ШКОЛЫ ПО ОХРАНЕ ПРИРОДЫ ШКОЛЬНИКОВ // Вопросы науки и образования. 2021. №13 (138)

5. Глазачев С.Н. Экологическая культура учителя: Исследования и разработки экогуманитарной парадигмы. — М.: «Современный писатель», — 1998 — С. 432

6. Развитие системы образования — обеспечение будущего. Германова Г.Н., Горшенина М.В., Ескиндирова М.Ж., Зубарева В.А., Карасюк В.В., Коновалова Н.Г., Красильникова Е.В., Макеева И.А., Романенко Е.С., Столовець В.Г., Уткина А.Н., Шаркун Ю.Ф., Шаркун Ю.Ф., Шевченко С.В. Одесса, 2013. Том 1, Книга 3

7. Ситак Л.А. Формирование экологической культуры студентов педагогического колледжа во внеклассной работе: Монография, Пятигорск: ГОУ ВПО ПГЛУ, 2011.-172 с. («педагогический колледж -педагогический вуз»): Монография. -М. 2003, 174 с.

8. Ситак Л. А. Формирование экологической культуры студентов педагогических вузов средствами внеклассной работы// Крымский научный вестник. — №4 — 2015 г., Том 2. «Педагогические науки», с. 242-248. [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <http://krvestnik.ru/pub/2015/09/SitakLA1.pdf>

9. Шодиметов Ю. Ижтимоий экологияга кириш. Олий ўкув юртлари учун дарслик. Т.: Ўқитувчи, 1994. – 240 6.